

QO‘QON DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI
ILMIY XABARLARI
(2025-yil 2-son)



IJTIMOIIY FANLAR
SOCIAL STUDIES

MUSTAQILLIK YILLARI O‘ZBEKISTONDA TURIZM MASALASI (XORAZM VILOYATI MISOLIDA)

Tojiev Alisher Sultannazirovich
UrDU, Tarix kafedrası o‘qituvchisi
alishertojiyev@mail.ru

Annotatsiya: Ushbu maqolada Xorazm viloyatining turizm sohasidagi imkoniyatlari va rivojlangan davlatlarning ilg‘or tajribasi asosida turizmni rivojlantirish bo‘yicha takliflar keltirilgan.

Аннотация: В данной статье представлены предложения по развитию туризма, основанные на возможностях Хорезмской области в сфере туризма и лучшем опыте развитых стран.

Abstract: This article presents proposals for the development of tourism based on the opportunities of Khorezm region in the field of tourism and the best experience of developed countries.

Kalit so‘zlar: Buyuk ipak yo‘li, Ichan qal‘a, turizm, viza, vizasiz rejim, infrastruktura, xorijiy davlatlar.

Ключевые слова: Великий Шелковый путь, Ичан кала, туризм, виза, безвизовый режим, инфраструктура, зарубежные страны.

Key words: Great Silk Road, Ichan kala, tourism, visa, visa-free regime, infrastructure, foreign, countries.

O‘zbekistonda jahon standartlariga to‘g‘ri keladigan turizm tizimini vujudga keltirish, bu sohani boshqarishni takomillashtirish, uning samaradorligini oshirish maqsadida, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 1992-yil 27-iyulda qabul qilingan “O‘zbekturizm” Milliy kompaniyasini tashkil qilish to‘g‘risida”gi PF-447-son qaroriga asosan, “O‘zbekturizm” Milliy kompaniyasi (1992-2016) tashkil etildi. SHu bilan birga, 1992-yil 2-dekabrda “O‘zbekturizm” Milliy kompaniyasining ham tashkil qilindi. “Xorazm” mintaqaviy bo‘linmasi bugungi kunda ham mintaqadagi turizm bilan shug‘ullanuvchi tashkilotlar faoliyatini muvofiqlashtirib borishga rahbarlik qilib kelmoqda.

“O‘zbekturizm” Milliy kompaniyasining vujudga kelishi va bu tashkilotning 1993-yil 4-oktyabrda Butunjahon turizm tashkilotiga a‘zo bo‘lib kirishi muhim tarixiy voqelik bo‘ldi. Butunjahon turizm tashkiloti (UNWTO) BMTning xalqaro sayyohlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha jahondagi yagona xalqaro tashkiloti hisoblanadi. Ushbu tashkilot dastlab 1925-yilda

Xalqaro sayyohlar assotsiatsiyasi sifatida tashkil topgan. 1974-yilda uning nomi Butunjahon turizm tashkiloti deb o‘zgartiriladi. 2003-yilda tashkilot BMTning ixtisoslashgan muassasasi maqomiga ega bo‘ldi. 2003-yil holatiga ko‘ra Butunjahon turizm tashkilotiga 159 mamlakat a‘zo bo‘lib kirgan. Butunjahon turizm tashkilotining shtab kvartirasi Ispaniyaning Madrid shahrida joylashgan. 2004-yilda Samarqand shahrida tashkilotning Buyuk Ipak yo‘lida sayyohlikni rivojlantirishni muvofiqlashtirish bo‘yicha mintaqaviy ofisi tashkil etildi. 2014-yil 1-3-oktyabr kunlari Samarqand shahrida BMT JST Ijroiya Kengashining 99-sessiyasi bo‘lib o‘tdi. Xalqaro anjumanda tashkilot Bosh Kotibi Taleb Rifai ishtirok etdi. 2023-yil 16-20 oktyabr kunlari Jahon turizm tashkilotining 25-sessiyasi Samarqand shahrida o‘tkazildi, Xalqaro anjumanda tashkilot Bosh Kotibi Zurab Pololikashvili nutq so‘zladi.

O‘zbekistonda xalqaro turizmni yangi bosqichga ko‘tarish va samarali faoliyat ko‘rsatishiga mos keladigan yangi shart-sharoit va mexanizmlar vujudga keldi [5, b. 182]. Turizm sohasidagi siyosat Oliy Majlis tomonidan belgilab beriladi. O‘zbekiston Respublikasining 1999-yil 20-avgustdagi “Turizm to‘g‘risida”gi qonuniga muvofiq mamlakatda turizmni boshqarish va rejalashtirish organlari tizimi yaratilgan va faoliyat ko‘rsatib kelmoqda. “O‘zbekturizm” Milliy kompaniyasi (1992-2016) turizm sohasida markaziy davlat ijroiya hokimiyati organi [6, b. 103] sifatida faoliyat olib borgan. Bu davr mobaynida turizm sohasida tizimli islohatlar amalga oshirilganligini ko‘rishimiz mumkin.

1997-yilda jahon madaniyatining durdonalaridan hisoblangan Xiva shaharining 2500 yilligi Parijda keng nishonlandi, xalqaro anjuman va ko‘rgazmalar o‘tkazildi. Keyingi yillarda bu hamkorlik doirasi yanada kengayib bormoqda [7, b. 553]. 1997-yil 20-oktyabrda Xiva shahrining 2500 yillik yubileyi Xiva shahrida nishonlandi. Dunyoning turli burchaklaridan Xiva shahrini ko‘rishga qiziqayotgan turistlar soni oshmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoevning 2018-yil 8-9-oktyabr kunlari Fransiyaga qilgan rasmiy tashrifi O‘zbekistonning YUNESKO bilan hamkorlik aloqalarini yanada kengaytirishda muhim ahamiyat kasb etdi. Davlat rahbari 8-oktyabr kuni Parij shahridagi YUNESKO bosh qarorgohida ushbu tashkilot Bosh direktori Odri Azule xonim bilan uchrashdi. Uchrashuvda har ikkala davlat rahbarlari O‘zbekiston bilan YUNESKO aloqalarini rivojlantirishga qaratilgan 2021-yilgacha hamkorlik dasturini imzolashdi [8, b. 433]. Ma‘lumki, O‘zbekistonga xorijiy sayyohlarning tashrifi bo‘yicha Fransiya oldingi o‘rinlarda turadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoev 2019-yil 15-oktyabrda Ozarbayjon poytaxti Boku shahrida Turkiy tilli davlatlar hamkorlik kengashining ettinchi sammitida so‘zlagan nutqida turizm sohasidagi hamkorlik haqida quyidagi fikrlarni keltirgan: “Sayyohlik sohasidagi hamkorligimizni jadallashtirish zarur. Oxirgi uch yilda Kengashga a‘zo davlatlardan yurtimizga kelgan sayyohlar soni salkam ikki barobarga o‘sgani bizni juda quvontiradi. Biz Tashkilotning o‘tgan yili ishlab chiqilgan “Zamonaviy Ipak yo‘li” sayyohlik dasturida faol ishtirok etishga tayyormiz. 2020-yilda ko‘hna Xiva shahri “Turkiy dunyoning madaniyat poytaxti” deb e‘lon qilinishi qardosh xalqlarimizni yanada yaqinlashtirishga, abadiy do‘stligimizni mustahkamlashga albatta katta hissa qo‘shadi” [3, b. 261]. O‘zbekistonning

xalqaro tashkilotlar bilan aloqalarining o‘shishi, xalqaro sayyohlik dasturlarida ishtiroki turizmning o‘shishiga imkon yaratadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoev 2018-yil 7-dekabrda O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 26 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi “Bilimli avlod – buyuk kelajakning, tadbirkor xalq – farovon hayotning, do‘stona hamkorlik esa taraqqiyotning kafolatidir” nomli ma’ruzasida “Turizmni rivojlantirish, sohaga investitsiyalar jalb etish, kadrlar salohiyatini oshirish bo‘yicha kompleks choralar ko‘rishimiz lozim. Bizda turizm ko‘pincha qadimiy shaharlarimiz, tarixiy-madaniy yodgorliklar doirasida cheklanib qolmoqda. Vazirlar Mahkamasi bir oy muddatda 2019-2025-yillarda Turizmni rivojlantirish milliy konsepsiyasini ishlab chiqishi va ijrosini ta‘minlashi zarur. Shu asosda, 2025-yilda yurtimizga tashrif buyuradigan xorijiy sayyohlar sonini 7 million nafarga, turizm eksportidan keladigan yillik daromadni esa 2 milliard dollarga etkazish lozim” [1, b. 38], deb ta’kidlagan.

Turizmning rivojlanishi xizmat ko‘rsatish sohasining o‘shishini rag‘batlantiradi, jumladan, “Xorazm” mintaqaviy bo‘linmasi tomonidan 1995-yilning 9 oyi davomida rejada 20699,5 ming so‘mlik xizmat ko‘rsatish belgilangan bo‘lsa, amalda 24891,9 ming yoki 120,3 foiz xizmat ko‘rsatilgan. Hammasi bo‘lib, 16,25 ming nafar kishiga xizmat ko‘rsatilgan bo‘lsa, shundan 9,25 ming chet ellik sayyoh qabul qilingan, 7,0 ming nafar kishi chet elga sayohatga jo‘natilgan. Xizmat ko‘rsatish sohasining o‘shishi aholining ish bilan bandligini ta‘minlashga yordam beradi. O‘zbekistonda soha hisobidan kelgusida kamida 1 million yangi ish o‘rni yaratish rejalashtirilgan.

Turizm sohasidagi yana bir yo‘nalish fuqarolarning chet elga sayohatga chiqishlaridir. Xorijda bilim olish, malakasini oshirish, ishlash, sog‘lig‘ini tiklash va dam olishdan jamiyat ham manfaatdor, jumladan, Xorazm viloyatiga 1997-yilda 16737 nafar turist sayohatga kelgan bo‘lib, shundan 9218 nafarini xorijiy sayyohlar tashkil qilgan. O‘z navbatida, 22526 nafar kishi sayohatga jo‘natilgan, ulardan 17046 nafari xorij mamlakatlarga yuborilgan. 1998-yil davomida jami 18900 nafar sayyohga xizmat ko‘rsatgan bo‘lib, shundan 17500 nafar sayyoh qabul qilingan, 1400 nafar kishi chet ellarga jo‘natilgan. Bundan viloyatda chiqish turizmi yillar kesimida oshib kelganligini ko‘rish mumkin.

Bugungi kunda xizmatlar sohasi viloyat iqtisodiyotining jadal rivojlanayotgan tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Turizm sohasini rivojlantirishning muhim omillaridan biri xorijiy sayyohlarga ko‘rsatiladigan xizmat sifatini tubdan yaxshilash hisoblanadi. Bular – restoran xizmati, tavsiya etiladigan taomlar, mehmonxona sharoiti, shuningdek, transport, savdo, hordiq chiqarish va madaniy tadbirlar sifatini o‘z ichiga oladi. Ana shu nuqtai nazardan, viloyatda xizmat ko‘rsatish sohasini yaxshilashga doir qator ishlar amalga oshirilganligini viloyatga tashrif buyurayotgan sayyohlarga ko‘rsatilayotgan xizmatlardan ham ko‘rish mumkin.

Turizm – bu ham investitsiya, ham eksport, ham yangi ish o‘rinlari va kambag‘allikni qisqartirish degani. Shuning uchun, har bir hududda bu sohaga jiddiy e‘tibor qaratib, ko‘proq sayyohlarni jalb etish kerak. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining har safar viloyatga

tashrifi davomida Xiva shahrining infratuzilmasini yaxshilash, turizm va tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta‘minlash, kambag‘allikni qisqartirish loyihalari bilan tanishishi natijasida, dolzarb masalalar o‘z echimini topmoqda.

Turizm sohasidagi tizimli chora-tadbirlar natijasida qator ishlar qilinyapti, jumladan, tarixiy obidalar qoshida axborot doskasi, Wi-Fi zonasi, dam olish uchun etarli darajada o‘rindiqlik va soyabonlar, axlat qutisi, bioxojatxona, telefon va kompyuterlarni quvvatlantirish uskunalari, taksi buyurtma berish joyi, bankomat, avtomashinalarning to‘xtash joylari kabi eng zarur sharoitlarni yaratish, nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun maxsus pandus, velosiped yo‘lakchalari barpo etish ishlari davom ettirilmoqda [9, b. 4]. Turizm sohasi uchun qilinayotgan bunday qulayliklarni Ichanqal’a bilan birga Buxoro va Samarqand shaharlaridagi qulayliklar bilan qiyoslash mumkin.

Mamlakatimizda turizm sohasini modernizatsiya qilish va kompleks rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli ishlar xalqaro miqyosda ham e‘tirof etilmoqda. Shuningdek, mamlakatimiz eng tez rivojlanayotgan turizm maskani va eng xavfsiz davlat sifatida xalqaro reytinglarda yuqori o‘rinlarni egallab kelmoqda [4, b. 349], masalan, 1997-yil I-kvartalda Urganch shahridagi “Jayxun” mehmonxonasi tomonidan 65 nafar xorijiy turistlarga xizmat ko‘rsatilgan bo‘lib, ular Irlandiyadan 2 nafar, Fransiyadan 2 nafar, Turkiyadan 3 nafar, Germaniyadan 27 nafar, Niderlandiyadan 5 nafar, Angliyadan 3 nafar, Yaponiyadan 12 nafar, AQSHdan 4 nafar, Janubiy Koreyadan 6 nafar, Avstraliyadan 1 nafarni tashkil etgan.

O‘zbekistonda turizmni rivojlantirish borasida bir qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, Turizmni rivojlantirish davlat qo‘mitasi va uning mintaqaviy tuzilmalari shtat birliklarining oshirilgani, hududlarda turizm departamentlari va boshqarmalari, hokim o‘rinbosarlari lavozimlari tashkil etilgani mazkur tashkilotlarning imkoniyatlarini ko‘payganligini ko‘rsatadi. Butun dunyoda xavfsiz sayohat eng muhim masalalardan biridir. Bu borada xorijiy va mahalliy sayyohlar xavfsizligini ta‘minlash maqsadida O‘zbekistonda 2017-yildan boshlab turizm politsiyasi tashkil etildi.

Haqiqatan ham, turizm sohasi bir qator afzalliklarga ega. Ushbu salohiyatdan unumli foydalanish mamlakatni hamda uning hududlarini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda o‘ziga xos katalizator vazifasini o‘taydi. Turizmning rivojlanishi infratuzilma va xizmat ko‘rsatish sohasiga multiplikativ ta‘sir ko‘rsatishi, valyuta tushumlarining muhim manbaiga aylanishi, xalqaro aloqalarni kengaytirishi, investorlarning mamlakatga qiziqishini oshirishi mumkin.

O‘zbekistonda Samarqand, Buxoro, Xiva, Shahrisabz, Qo‘qon kabi jahonga mashhur turistik shaharlar mavjud. Turizm sohasida deyarli barcha viloyat va tumanlarda imkoniyatlar etarli, ammo yuqorida sanab o‘tilgan hududlarda mutloq va nisbiy ustunliklar ko‘proq sanaladi [1, b. 264]. Xorazm viloyati nodir tarixiy arxitektura yodgorliklariga, shirin-shakar mevalar, xilma-xil taomlar, ajoyib milliy an‘ana, urf-odatga ega bo‘lgan mehmondo‘st xalqqa ega. Bularning barchasi chet ellik turistlar e‘tiborini o‘ziga tortadi, jumladan, 1995-yil davomida Yaponiyadan 1155 nafar, Angliyadan 302 nafar, AQSHdan 222 nafar, Fransiyadan 922 nafar,

Germaniyadan 329 nafar, Ispaniyadan 332 nafar, Italiyadan 144 nafar turist Xiva shahrini ko‘rish uchun kelgan.

Turizm xizmat ko‘rsatishga asoslangan iqtisodni yaratish va rivojlantirishni rag‘batlantiradi. Ushbu faoliyat doirasi Toshkentdagi yirik mehmonxonalardan tortib, Samarqanddagi kichik xostellar, xalqaro aeroportlardagi butiklar, Xiva shahridagi Ichanqal‘aning xushmanzara ko‘chalaridagi kichik hunarmandchilik do‘konlarigacha bo‘lgan manzillarni qamrab oladi. Masalan, “Xiva” turistik sayr majmuasi tomonidan 1996-yil davomida sayyohlarga ko‘rsatilgan jami xizmat hajmi rejadagi 6800 ming so‘m o‘rniga 9911 ming so‘mga yoki 145,8 foizga oshirib bajarilgan. “Xiva” turistik sayr majmuasi tomonidan 1996-yil rejalarni oshirib bajarilishi “O‘zbekfilm” kino tasvirchilarining Xiva shahrida Buyuk Amir Temur va So‘g‘diyona kinolarini olish chog‘ida mehmonxona va ovqatlanish, transport xizmatlari ko‘rsatilganligi bilan izohlanadi.

Turizm sohasi rivojlangan davlatlarni tajribasini kuzatish va O‘zbekiston bilan qiyoslash mumkin, masalan, Gruziya so‘nggi bir necha yilda chet ellik turistlar sonini uch marta oshirgani bilan maqtovga sazovor bo‘ldi. Ushbu mamlakat ajoyib taomlari, noyob madaniy merosi, samimiy va hayotsevar xalqi bilan mashhur. Biroq boshqa ko‘plab mamlakatlarning gastronomik va madaniy merosi ham shunday noyob bo‘lishiga qaramay, ular dunyo sayyohlari nazaridan chetda qolmoqdalar. Gruziyaning aksariyat davlatlar uchun vizani bekor qilgani o‘z navbatida sayyohlar sonining keskin oshishiga sabab bo‘ldi. Hozirda Gruziyaga kelayotgan sayyohlar soni yiliga 6,5 million kishini tashkil qiladi. Gruziyada turizm sohasining yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 27,1 foizni (2020 y) tashkil qiladi. O‘zbekistonda turizm sohasining yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 5 foizni (2024 y) tashkil qilmoqda. Keyingi yillarda salkam 100 ta mamlakat fuqarolari uchun O‘zbekistonga vizasiz kirish tizimi, yana 55 ta davlat fuqarolari uchun soddalashtirilgan elektron viza tartibi joriy etildi. Sayyohlik biznesini yuritish uchun soliq va bojxona imtiyozlari taqdim etilib, kredit va moliyaviy yordam kuchaytirildi. Mamlakatimizda mehmonxona o‘rinlarining soni 2023-yil holatiga ko‘ra 140 mingtaga etkazildi, 70 ta yangi sayyohlik marshruti ochildi, qisqa vaqt ichida 6 ta xususiy aviakompaniya ish boshladi. 2024-yilda mamlakatimizga jami 7 million nafar sayyoh tashrif buyurdi. Ushbu ko‘rsatkichni 2030-yilda 15 million nafarga, ichki sayyohlik oqimini esa 25 million nafarga etkazish rejalashtirilgan [4, b. 348].

Xulosa qiladigan bo‘lsak, O‘zbekistonda turizm sohasida milliy iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish, hududlarni jadal rivojlantirish, yangi ish o‘rinlarini yaratish, aholining daromadlari va turmush darajasini ko‘tarish, mamlakatning investitsiyaviy jozibadorligini oshirishni ta‘minlovchi strategik tarmoqlardan biri sifatida rivojlantirish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirziyoev Sh.M. 2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini “Xalq bilan muloqot va inson

manfaatlari yili”da amalga oshirishga oid Davlat dasturini o‘rganish bo‘yicha uslubiy risola. – Toshkent: Ma’naviyat, 2017. – B. 264.

2. Mirziyoev Sh.M. Niyati ulug‘ xalqning ishi ham ulug‘, hayoti yorug‘ va kelajagi farovon bo‘ladi. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2019. – B. 38.

3. Mirziyoev Sh.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2020. – B. 261.

4. Mirziyoev Sh.M. Hozirgi zamon va Yangi O‘zbekiston. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2024. – B. 348

5. Mamatqulov X., Bektemirov A., Tuxliev I., Norchaev A. Xalqaro turizm. Darslik. – Toshkent: “O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati”, 2009. – B. 182.

6. Tuxliev I., Qudratov G‘. Turizmni rejalashtirish. Darslik. – Toshkent: “Iqtisod-moliya”, 2010. – B. 103.

7. Rahimov M., Zamonov A. O‘zbekiston tarixi. – Toshkent: “Fan”, 2019. – B. 533.

8. Shamsutdinov R., Mo‘minov H. O‘zbekiston tarixi. – Toshkent: “Fan”, 2020. – B. 433.

9. Nizomov A. O‘zbekiston keng imkoniyatlar mamlakati. // Xalq so‘zi, 2018-yil 8-noyabr, № 231 (7189), – B. 4.